





Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-dekabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 14 584,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 117,9 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,7 %) ni tashkil etdi.



B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat
D–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*% da (2021- yil yanvar-dekabr)




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 17,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning –22,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 1,9 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining-31,1 % ga kamayganligi kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da (2021- yil yanvar-dekabr)



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(yil boshidan I- XII oylar, % da)

2020- yil, % da

2021- yil, % da






Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-dekabr)

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Shag'al , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat (2021- yil yanvar-dekabr)



2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 209,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,7 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2021- yil yanvar-dekabr)




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida - 2,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,5 % (5,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 14,6 % (11,8 %) va quyi texnologiyalisi - 78,5 % (80,0 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 26,6 % (2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,6 % (2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,1 % (2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 72,0 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,2 % (2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 63,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,4 % (2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,9 %) ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da
(2021- yil yanvar-dekabr)


2021-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 59,3 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 45,4% ga o'sgan), 61,9 ming tonna omuxta yem (3,9 %) ishlab chiqarilib kamaygan o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Yumshoq bug'doy va
spelta uni**



Paxta tolasi



Omuxta yem




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-dekabr)

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	40,8	59,3	18,5
Aroq – ming litr 100 % spirt	318,0	0	-318,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0	0	0
Vino, ming litr	886,3	0	-886,3
Un, ming tonna	128,9	125,2	-3,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	17,0	13,3	-3,7



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (2021- yil yanvar-dekabr)

mlrd. so‘m



FHI, % da



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2155,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (14,6 % ini) tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 22,7 % ga ortganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yil boshidan I- XII oylar, % da)

2020- yil, % da

2021- yil, % da




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	5570,2	6643,8	1073,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	77,6	87,5	-9,9





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish





Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I- XII oylar)



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	78,7	117,8	39,1




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- dekabr	2021- yil yanvar- dekabr	Farqi +/-
qava suvlarni shlami, mlrd.so‘m	49,2	82,8	33,6
Shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m	24,4	23,6	-0,8
To‘qimachilik chiqindilari, tonna	10,0	44,0	34,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 49,7 % ga, oqava suvlarni shlami 68,3% ga ortganligi, hamda shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 3,2 % ga kamayganligi kuzatildi.




Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5519,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 55,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlabchiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumaniga to'g'ri kelib, 46,6 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 38,5 % ni, Pop tumani 35,6 % ni, Chust tumani 28,5 % ni, Norin tumani 24,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (118,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Uychi (126,6 %), Kosonsoy (146,6 %), To'raqo'rg'on (138,5 %), Namangan shahar (120,5 %), Chortoq (137,3%) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-dekabr


Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 44,7 % ni, shuningdek, Namangan tumani 7,2 % ni, To'raqo'rg'on tumani 9,6 % ni hamda Kosonsoy tumani 8,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Chust (131,2%), To'raqo'rg'on (150,7 %), Kosonsoy (152,2 %) hamda Pop (140,5 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021- yilning yanvar- dekabr)

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 46,4 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 11,5 % ni, Namangan tumani esa 10,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida

eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (258,6 %), Uychi tumani (134,7 %) hamda Chortoq tumanida (164,6 %) qayd etildi.




2 433,7 mlrd. so'm

2020- yil yanvar- dekabr

2 832,4 mlrd. so'm

2021- yil yanvar- dekabr



01

2020- vil

110,5 %

02

2021- vil


114,7 %

mlrd. so'm

o'sish sur'ati

• Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (10 750,9 ming so'm), Namangan shahrida (9 023,7 ming so'm), Uchqo'rg'on (5 168,6 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 030,5 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (1 110,1 ming so'm), Chortoq (1 437,7 ming so'm), Pop (2 002,3 ming so'm) va Kosonsoy (2 742,2 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



• Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,4 % i) hamda To‘rao‘rg‘on (17,7 %), Uychi tumani (6,4 %) va Namangan tuman (6,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangiqo‘rg‘on (1,7 %) hamda Chortoq (2,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



• Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8361 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3836 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,9 % i) Namangan shahriga, 565 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 524 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 556 tasi (7,4 %) Kosonsoy tumaniga, 533 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 473 tasi (6,5 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020- yil

1 524- dona

2021- yil

1 731 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

6 577- dona

2021- yil

7 150 dona

faoliyat yuritayotgan

yangi tashkil etilgan



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yil yanvar-dekabr)

	2020- yil	2021- yil
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	53	66
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	34	50
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	315,0	668,9
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln AQSH doll.</i>	2,1	10,1
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	520	1114